

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIKA FANIGA  
QIZIQISHLARINI ORTTIRISHDA MATEMATIK ERTAKLARNING ROLI**

**Raximova Shoira Adilbekovna**

Urganch davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"  
kafedrasida katta o'qituvchisi

**Ro'ziboyeva Gulruxsor Sanjarbek qizi**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini orttirish hamda o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, matematik muammolarni tez va oson hal qilishga, topqirlikka o'rgatishda va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishda matematik ertaklarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

**Annotation:** in this article, it is given the ways to stimulate students' interest in mathematics in the primary schools. this article also discusses the importance of mathematical tales in teaching students to think logically, solve mathematical problems quickly and easily be resourceful and develop logical thinking.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение математических сказок в развитии интереса учащихся начальных классов к математике, помощи им в логическом мышлении, решении математических задач быстро и легко, развитии сообразительности и логического мышления.

**Kalit so'zlar:** matematik ertak, miqdor, matematik tushunchalar, mantiqiy fikrlash, matematik muammolar.

**Keywords:** mathematical fairy tale, quantity, mathematical concepts, logical thinking, mathematical problems.

**Ключевые слова:** математическая сказка, сказка, количество, математические понятия, логическое мышление.

Bugungi kunda an'anaviy dars o'tish shaklidan voz kechib turib zamonaviy usullardan foydalangan holda bolalarga ilg'or ped texnologiyalaridan foydalanib boshlang'ich sinflarda zamonaviy darslarni tashkil qilish o'qituvchilarning oldidagi vazifalardan biridir. Bunda o'qituvchilarimiz bolalarni yosh hususiyatlarini e'tiborga olgan holda dars metodlaridan foydalanishadi. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida matematik ertaklardan hamisha ham foydalanilmaydi. Buni rivojlantirish

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-5

maqsadida boshlang'ich sinf matematika darslarida ertaklardan foydalanib darslarni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Matematika darslarida matematik ertaklarning ikki xil turidan foydalanish mumkin:

- Shakllar, sonlar, matematik belgi va amallar ertak qahramonlari sifatida;
- Xalq ertaklariga matematik topshiriqlarni joylashtirish;

Matematika darslarida ertaklardan foydalanishning maqsadlari:

- O`quvchilarni faollashtirish;
- O`quvchilarda adabiyotga, ertakka bo`lgan qiziqishni orttirish;
- Atrofdagilarga yordam berish ko`nikmalarini tarbiyalash;
- Kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- Analiz va sintez qilishni, natijani tushuntira olish qobiliyatini rivojlantirish;
- Diqqatni jamlash ko`nikmalarini oshirish;
- Matematik nutqni o`stirish.

Bolalarda insoniy fazilatlarni shakllantirishdagi eng ta'sirchan janr, shubhasiz ertakdir. Ularning tafakkur doirasini kengaytirish, quvvai-hofizasini kuchaytirish, fikrlashga o'rgatishning asosiy omillaridan biri ham-ertak. Turli tuman voqealarga boy va sarguzashtlar asosiga qurilgan syujet, o'zida yaxshilik insoniylik fazilatlarni singdirgan, turli xil jumboqlardan tashkil topgan ertaklar bo'la tarbiyasida tahsinga sazovordir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik o'qitish muommolari bilan respublikamiz olimlaridan va umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida matematika o'qitishning matematik ertaklar orqali o'rgatilishining ayrim jihatlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan B.S.Abdullayeva, U.Ismailov Muxamedyanova R.R., Yunna Valerevna Sorokopud kabilarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

U.Ismoilovning "Ertaklarda matematika" to'plamida turli tuman voqealarga boy va sarguzashtlar asosiga qurilgan syujet, o'zida yaxshilik, insoniylik fazilatlarni singdirgan, turli tuman jumboqlardan tashkil topgan ertaklar bola tarbiyasida tahsinga

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-5**

sazovordir. Ushbu to'plamda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlari, muommolarini tez va oson hal qilishga, topqirlikka o'rgatuvchi fazilatlar mavjud.

Matematik ertaklar o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, muommalarni tez va oson hal qilishga, topqirlikka o'rgatadi. Hususan matematika faniga bo'lgan qiziqishlarning ortishida ertaklarning ahamiyati katta quyida matematik ertaklarni qaraymiz:

**Cho'pon va yigitcha**

(2-sinf o'quvchilari uchun)

**Maqsad:** Matematik savodxonlikni oshirish, 100ichida qo'shish va ayirishga o'rgatish.

Bor ekanda yo'q ekan, bir cho'pon yigitcha bor ekan. U juda ham mehnatkash va epchil bo'lib har yili qo'ylari soni oshib boraveribdi, sira kamaymabdi. Unga havas qilgan bir yigitcha buning sirini so'raganda cho'pon javob beribdi:

– Bir necha yillar oldin menda faqat 10tagina qo'y bor edi. Men ularga yaxshi qaradim va keyingi yil har bitta qo'y 1tadan bolaladi. Keyingi yil ham barcha qo'ylarim 1tadan bolaladi va ular yanada ko'paydi. Va har yili shunday davom etaverdi.

Yosh yigitcha yana so'ray boshladi:

– Nahotki shu paytgacha hech biri nobud bo'lmagan bo'lsa?

– Afsuski, o'tgan yili 3ta qo'yimni bo'rilar bo'g'izlab ketdi. Shuning uchun hozir men qo'ylarimni juda qattiq qo'riqlayman.

– Hozir hammasi bo'lib nechta qo'yingiz bor? Dedi yigitcha.

– Ho'sh, qo'ylarim oxirgi bir yil ichida 35 taga ko'paydi, endi o'zing topchi hozir menda nechta qo'y bor ekan.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Cho'ponda eng avval nechta qo'y bor edi?
2. Qo'ylar nechtadan ko'paydi?
3. 1yil ichida nechta qo'yga ortdi?
4. Ikkinchi yili qo'ylar nechaga ko'payadi?
5. Bo'rilar nechta qo'yni bo'g'izlab ketdi?
6. Qo'ylar oxirgi bir yilda nechtaga ortdi?
7. Cho'ponda hammsi bo'lib nechta qo'y bor?

**Javoblar:**

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-5**

1. 10ta qo'y bor edi.
2. Har bitta qo'y bittadan ko'paygan edi.
3. Bir yilda yana 10taga ortdi va 20ta bo'ldi.
4. Ikkinchi yili yana 20taga ko'paydi va 40ta bo'ldi.
5. 3tasini bo'rilar bo'g'izlab ketdi.
6. Oxirgi yili 35taga ortdi.
7.  $20+40-3+35=92$ ta

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda boshlang'ich sinflarni o'zlashtirishiga katta e'tibor qaratilayotganligi sababli, boshlang'ich sinflarda o'tilayotgan fanlarda o'quvchilarning bilim samaradorligi yuqori bo'lishi lozim.

Ayniqsa, matematika fanida ertaklardan foydalanib o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari va imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Darslarni qiziqarli, mazmunli bo'lishiga erishish mumkin. Matematika darslarida ertaklardan foydalansak bolalar hisob-kitobni tez bajarishga intiladilar.

Shu bilan birga ko'proq ertak kitoblar o'qishga harakat qiladilar. Darslarda ertaklardan foydalanish orqali o'quvchilar qalbiga turli kasblarga mehr uyg'otishimiz va maqsad sari intilishga o'rgatamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “ Математические сказки” , Е. А. Алябьева. «ТЦ Сфера», оформление, иллюстрации, 2018.
2. O'zbek xalq ertaklari. III-jild. “O'qituvchi”, Toshkent – 2014.
3. Мухамедьянова Р.Р. Сочинение математических сказок как средство гуманизации математического образования. Фестиваль педагогических идей «Открытый урок». Available at: <http://festival.1september.ru/articles/212424/>
4. “Ertaklarda matematika”. U.Ismoilov, “Yangi asr avlodi”, Toshkent 2007